



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 30-dekabr, № 275 (9170)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAUDIYA ARABISTONI ELCHISINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 29-dekabr kuni mamlakatimizdagi diplomatik missiyasini yakunlayotgan Saudiya Arabistoni Podshohligining Favqulodda va muxtor elchisi Yusuf al-Utaybiyni qabul qildi.



Davlatimiz rahbari elchining samarali faoliyatini hamda O'zbekiston bilan Saudiya Arabistoni o'rtasidagi har tomonlama sheriklik munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlashga qo'shgan shaxsiy hissasini alohida ta'kidladi.

Turli darajalarda tizimli muloqot va faol aloqalar yo'lga qo'yilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi va qo'shma korxonalar soni jadal o'sib bormoqda. Saudiya Arabistonining yetakchi kompaniyalari bilan loyihalar portfeli 27 milliard dollardan oshdi. "Yashil" energetika, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, infratuzilmani rivojlantirish va boshqa ustuvor sohalarida loyiha hamda tashabbuslar amalga oshirilmoqda.

Madaniy-gumanitar almashinuvlar faollashdi. Joriy yilning oktabr oyida Saudiya Arabistoni O'zbekiston madaniyati kunlari yuqori saviyada o'tkazildi. Mamlakatimiz Ar-Riyodda bo'lib o'tgan Xalqaro kitob ko'rgazmasida ishtirok etdi.

O'zbekiston yetakchisi Saudiya Arabistoni Hukumatiga fuqarolarimizning Haj va Umra amallarini ado etishiga yaratilgan qulay sharoitlar uchun minnatdorlik bildirdi.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston Prezidenti Yusuf al-Utaybiyga O'zbekiston — Saudiya do'stlik va ko'p tomonlama sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga qo'shgan katta hisssasi uchun "Do'stlik" ordenini topshirdi.

Elchi uning diplomatik missiyasiga berilgan yuksak baho hamda O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasida keng ko'lami hamkorlik rivojini har tomonlama qo'llab-quvvatlayotgani uchun mamlakatimiz yetakchisiga chuqur minnatdorlik izhor etdi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

IKKI TOMONLAMA SHERIKLIKNING JADAL SUR'ATIDAN MAMNUNLIK BILDIRILDI

29-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovning telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Suhbat avvalida yetakchilar bir-birlarini yaqinlashib kelayotgan Yangi yil bayrami bilan samimiy tabriklab, ikki mamlakatning qardosh xalqlariga tinchlik, farovonlik va ravnaq tiladilar. Davlatimiz rahbari Turkmaniston Prezidenti Sarder Berdimuhamedovga ham samimiy salomini yo'lladi.

O'zbekiston — Turkmaniston do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini oliy darajada erishilgan kelishuvlar doirasida yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi. Barcha darajalardagi muloqotlar faol davom etayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O'zaro tovar ayirboshlash va yuk tashish hajmi jadal o'sib bormoqda. Energetika, sanoat, qishloq va suv xo'jaligi, transport sohalarida hamkorlik kengaymoqda. "Shovot — Toshhovuz" chegaraoldi savdo zonasi ishga tushirildi. Hududlararo, ishbilarmonlik, madaniy-gumanitar almashinuvlar faollashdi.

Mintaqaviy hamkorlikning asosiy masalalari ham muhokama qilindi. Davlatimiz rahbari Avazada yirik sammitlar, Ashxobodda Turkmaniston betarafligining 30 yilligi hamda "Xalqaro tinchlik va ishonch yili" munosabati bilan tashkil etilgan forum muvaffaqiyatli o'tkazilganini alohida ta'kidladi.

Kelgusi yilda bo'lajak uchrashuvlar rejasi ko'rib chiqildi, xalqaro va mintaqaviy tadbirlarni birgalikda o'tkazishni davom ettirishga kelishib olindi.

QO'MITALAR FAOLIYATI TAHLILI

Oliy Majlis Senati qo'mitalarida 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilinmoqda. Xususan, kecha Senatning Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi hamda Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining yig'ilishlari bo'lib o'tdi.

Yig'ilish

Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi yig'ilishida 2025-yilda qonunchilikni takomillashtirish, parlament nazoratini kuchaytirish, fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoyasi hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilindi.

Xususan, qo'mita tomonidan Senat yalpi majlislari kun tartibiga kiritilgan 21 ta qonun ma'qullanib, bitta qonun qo'mita xulosasi asosida rad etilgan. Qonunlar, asosan, fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlash, sud-huquq tizimini isloh qilish, davlat boshqaruvi va ijro qonunchiligini takomillashtirishga qaratildi. Qonunchilik tashabbusi huquqi doirasida 3 ta qonun loyihasi ishlab chiqilib, Qonunchilik palatasiga kiritilgan.

Nazorat-tahlil faoliyati doirasida 46 ta tadbir o'tkazilib, Senat yalpi majlislarida

vazirlik va idoralar rahbarlarining axborotlari eshitildi va mehnat qonunchiligiga rioya etilishi, sud hujjatlarining ijrosi hamda talabalar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish masalalari yuzasidan parlament va senatorlik so'rovlarini yuborilgan.

Xalq bilan muloqot va murojaatlar bilan ishlash yo'nalishida 3 mingga yaqin murojaatlar ko'rib chiqilib, ularning salmoqli qismi ijobiy hal etildi.

Bundan tashqari, qo'mita yig'ilishida mahalliy Kengashlar bilan hamkorlikda doimiy komissiyalar a'zolari uchun seminar va o'quv tadbirlari tashkil qilinganligi, xalqaro hamkorlik doirasida xorijiy parlamentlar va xalqaro tashkilotlar bilan uchrashuvlar o'tkazilgani aytiladi.

Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasining ham yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda qo'mitaning 2025-yildagi qonunchilik va parlament nazorati faoliyati borasida amalga oshirgan ishlari haqida axborot berildi hamda 2026-yildagi ustuvor vazifalar belgilab olindi.



Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

MUROJAATNOMA — IJTIMOY ADOLAT, QONUN USTUVORLIGI VA INSON QADRINI YUKSALTIRISHGA QARATILGAN DASTURIY HUJJAT

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida mahalla infratuzilmasini yanada yaxshilash, iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish, kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratish, ekologik muvozanatni ta'minlash, "yashil" energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanish, zamonaviy davlat boshqaruvi hamda adolatli sud-huquq tizimi borasidagi islohotlarni davom ettirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi.

Siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining kecha bo'lib o'tgan yig'ilishlarida Murojaatnomada ilgari surilgan tashabbuslar mazmun-mohiyatini saylovchilarga yetkazish, yurtimiz ravnaqiga xizmat qiladigan vazifalarni amalga oshirish jarayonlarida faol ishtirok etish, bu borada muhim chora-tadbirlarni belgilab olish masalalari atroficha muhokama qilindi.

Jumladan, ikki siyosiy partiya — Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi hamda O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyalari a'zolaridan iborat "Taraqqiyot bloki"ning yig'ilishida Murojaatnomada belgilab berilgan 6 ta ustuvor yo'nalish hamda ulardan kelib chiqib, "Mahallani

rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" davlat dasturida nazarda tutiladigan vazifalarning so'zsis ijro etilishini ta'minlash, "O'zbekiston — 2030" strategiyasini yangidan qabul qilish maqsadlariga erishish parlament zimmasiga alohida mas'uliyat yuklashi qayd etildi.

— Murojaatnomada belgilangan ustuvor yo'nalishlar O'zLiDeP saylovoldi dasturida ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarga to'liq mos keladi, — dedi fraksiya rahbari Aktam Haitov. — Partiyamiz va uning fraksiyasi ushbu islohotlarni amalga oshirishda qonun ijodkorligi, parlament nazorati va joylardagi amaliy ishlarni yanada kuchaytirgan holda iqtisodiyotni yuksaltirish, xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash va tadbirkorlik uchun yanada qulay muhit yaratish yo'lida mas'uliyat bilan faoliyat olib boradi.



IQTISODIYOT YO'NALISHIDA ERISHILGAN ULKAN YUTUQLAR

SO'NGGI TO'QQIZ YILDA YANGI O'ZBEKISTON KATTA TARAQQIYOT YO'LINI BOSIB O'TDI. BIRGINA YANGIDAN SHAKLLANGAN IQTISODIYOT YG'NALISHIDAGI YUTUQLAR ULKAN:

FAKT VA RAQAMLAR



2025 yilda tariximizda
birinchi marta yalpi ichki
mahsulot

145
milliard
dollardan oshdi;

global savdo tizimida "o'yin
qoidalarini" o'zgarayotgan bir
paytda bu yil eksportimiz
23 foizga oshib

33,4
milliard dollarga
yetkazildi;

eng muhimi, islohotlarimiz
uchun mustahkam moliyaviy
baza bo'ladigan oltin-valyuta
zaxiralarimiz ilk bor

60
milliard
dollardan oshdi;

joriy yil iqtisodiyotimizga
jalb qilingan xorijiy
investitsiyalar hajmi

43,1
milliard
dollarga yetdi;

jami investitsiyalarning yalpi
ichki mahsulotdagi ulushi

31,9
foizni tashkil
etmoqda.

Bu esa iqtisodiyotimiz kelgusi yillarda ham yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sib borishi uchun zamin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan.

MAMLAKAT GIDROENERGETIKA XARITASIDAGI YANGI IMKONIYATLAR

Keyingi yillarda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar mamlakat taraqqiyotini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohasini qamrab olgan ushbu islohotlar, avvalo, inson manfaatlarini ta'minlash, aholining turmush darajasi hamda sifatini yanada oshirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Sarhisob

Makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, bozor mexanizmlarini joriy etish, moliyaviy tizimni liberallashtirish, kambag'allikni qisqartirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan jamiki chora-tadbirlar iqtisodiyotda barqaror o'sishni ta'minlamoqda. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, islohotlar statistika uchun emas, inson qadri, sha'ni va kelajagi uchun amalga oshirilyapti.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish, "yashil" iqtisodiyotga o'tish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Xususan, energiya resurslariga bo'lgan talab yil sayin ortib borayotgan bir paytda, energetika tizimini tubdan yangilash, uning barqaror va samarali ishlashini ta'minlash strategik vazifa sifatida belgilandi. Bu jarayonda ekologik toza hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki ekologik xavfsizlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan ham zarur.

Ana shu sharoitda gidroenergetika mamlakat energetika tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida ahamiyati ortib bormoqda. Suv resurslaridan oqilona foydalanish, mavjud gidroinfratuzilmani modernizatsiya qilish va yangi gidroelektr stansiyalarini qurish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, hududlarning energetik ta'minotini yaxshilashga erishilyapti.

Gidroenergetika nafaqat ishonchli energiya manbai, balki yangi



ish o'rinlari yaratish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qilayotgan muhim soha sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ta'kidlash joizki, "O'zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyati tashkil etilganidan buyon

ta ishlab chiqarish obyekti, xususan, o'nlab yangi va modernizatsiya qilingan gidroelektr stansiyalari foydalanishga topshirilib, 841 megavatt yangi quvvat yaratildi.

Bugungi kunda mamlakatning amaldagi gidroenergetika salohiyati 2,5 gigavattga yetgani, 2017-yildagiga nisbatan 52 foizlik o'sishga erishilgani sohada olib borilayotgan islohotlarning hayotiy va samarali ekanini yaqqol tasdiqlaydi. Joriy yilda gidroresurslar hajmining sezilarli darajada kamayishiga qaramay, gidroenergetika tarmog'ida barqaror ishlab chiqarish ta'minlandi. Umumiy quvvati 166 megavatt bo'lgan 28 ta yangi obyekt ishga tushirilib, hududlarda yuzlab yangi ish o'rinlari yaratildi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari, aniq prognozlash tizimlari va samarali boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali gidroelektr stansiyalarining ishonchli faoliyati ta'minlanmoqda. Natijada



samarali hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda o'zining moliyaviy barqarorligi va ishonchli sherik ekanini namoyon etmoqda. Jamiyatning dunyo kredit reytinglarini barqaror saqlab kelayotgani, xalqaro audit hamda "ESG" baholash natijalarining ijobiy

bo'lishi kompaniya faoliyatida ochiqlik va mas'uliyat ustuvor ekanidan dalolat, albatta. Bu, o'z navbatida, sohaga yangi investitsiyalarni jalb qilish uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

E'tiborlisi, yirik gidroenergetika loyihalarining amalga oshirilishi, jumladan, Norin, Quyi Chotqol va To'polang gidroelektr stansiyalari kaskadlarining ishga tushirilishi mamlakat energetika xaritasida yangi imkoniyatlarni ochib berdi. Ushbu loyihalar orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmlari oshirilishiga qolmay, balki hududlarni kompleks

rivojlantirish, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmani yaxshilashga ham xizmat qilayotir.

Sohada mahalliyashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Gidroagregatlar ishlab chiqaruvchi "UzHydropower" milliy korxonasining faoliyati ichki ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, import o'rini bosish va yangi texnologiyalarni joriy etishda qo'l keldi. Qisqa muddat ichida yuzlab milliard so'mlik mahalliyashtirilgan uskunalarining ishlab chiqarilishi soha rivojida muhim qadam bo'ldi.

Umuman, gidroenergetika sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar mamlakatning energetik mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va aholi farovonligini oshirishga qaratilgani bilan ham juda muhim.

"O'zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyatining barqaror rivojlanishi, xalqaro maydondagi e'tirofi va strategik ahamiyatga ega loyihalari Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim ustuniga aylanib bormoqda. Ko'zlangan maqsad aniq – mamlakat gidroenergetikasini zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirib, uni yanada yuqori bosqichga olib chiqishdan iborat.

Xurshid RAVSHANOV,
"O'zbekgidroenergo" aksiyadorlik jamiyati
Axborot-tahlil bo'limi boshlig'i.

«FIDO-BIZNES» kompaniyasi jamoasi aziz vatandoshlarimizni, hamkorlarimizni va hamkasblarimizni kirib kelayotgan 2026-yil bilan samimiy tabriklaydi!

Barchangizga mustahkam sog'liq, yuksak muvaffaqiyatlar va yangi yutuqlar tilaydi.

Yangi yil keng miqyosli hamkorliklar, puxta va oqilona qarorlar, moliyaviy barqarorlik hamda ertangi kunga yuksak ishonch olib kelsin!

REKLAMA

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY INVESTITSIYA JAMG‘ARMASI” AJ (“UZNIF”)NING O‘Z AKSIYALARINI QAYTA SOTIB OLISH YO‘LI BILAN USTAV FONDINI KAMAYTIRISH TO‘G‘RISIDA XABARNOMA

Xabarnoma sanasi: 2025-yil 30-dekabr
Ushbu xabarnoma O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni hamda “UZNIF” Ustaviga muvofiq e‘lon qilinmoqda.



1. Emitent haqidagi ma'lumotlar
Firmaning to'liq nomi: "O'zbekiston Respublikasi milliy investitsiya jamg'armasi" aksiyadorlik jamiyati.

Yuridik / pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Niyozbek yo'li ko'chasi, 1-uy, 100000.

Veb-sayt: www.uznif.uz

E-mail: uznif@franklintempleton.com.

Tel.: +998 99-433-08-80

2. Xaridni amalga oshirish asoslari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi "UZNIF" faoliyatini takomillashtirish va uni IPOga tayyorlash to'g'risidagi RP-289-sonli qarorini amalga oshirish maqsadida qabul qilingan 2025-yil 26-dekabrdagi yagona aksiyadorning 10-son qarori bilan "UZNIF"ning ustav kapitalini o'z aksiyalarini qayta sotib olish va ularni bekor qilish orqali kamaytirish belgilangan.

3. Sotib olish predmeti va parametrlari

Aksiyalar turi: oddiy, egasining nomi yozilgan, hujjatsiz aksiyalar; har birining nominal qiymati 1 (bir) so'm.

Sotib olinadigan va bekor qilinadigan aksiyalar soni: 2 615 346 692 396 dona oddiy aksiya.

Qayta sotib olish muddati: 30 (o'ttiz) kalendar kuni — yagona aksiyador qarori qabul qilingan sanadan boshlab 2026-yil 25-yanvargacha. Yagona aksiyador jamiyat Ustaviga muvofiq 10 kunlik xabarnoma muddatidan voz kechgan.

Xarid narxi va to'lov shakli: jami xarid narxi — 2 615 346 692 396,00 so'm bo'lib, aksiyador(lar) qaroriga muvofiq ashyo (natura) va naqd pul shaklida to'lanadi.

4. Qo'shimcha ma'lumotlar

"UZNIF" tomonidan sotib olingan o'z aksiyalari ovoz berish huquqini bermaydi, ovozlari hisobida inobatga olinmaydi va ular bo'yicha dividendlar to'lanmaydi hamda ushbu aksiyalar ustav fondini kamaytirish maqsadida keyinchalik bekor qilinadi.

Kreditrlarning huquqlari: qonunning 20-moddasiga muvofiq, kreditrlar ustav fondi kamaytirilganligi haqida xabardor bo'lgan sanadan boshlab 30 kalendar kun ichida jamg'arma majburiyatlarini muddatidan oldin bajarishni hamda bunday kamaytirish bilan bog'liq zararni qoplashni talab qilish huquqiga ega. "UZNIF" ushbu huquqlarni amalga oshirish uchun zarur darajadagi axborotlarni oshkor etishni ta'minlaydi.

“Elektron Realtor” MCHJ



to'g'ridan-to'g'ri muzokaralar olib borish yo'li bilan tashkillashtiriladigan ko'chmas mulklar va ularga bo'lgan huquqlar bo'yicha o'tkaziladigan savdoga taklif etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 15 apreldagi PQ-142-sonli qaroriga asosan "O'zsanoatqurilishbank" ATB balansida bo'lgan:

– Toshkent shahri, Yunusobod tumani, "Barhayot" MFY, 12-mavze, 27-"A" uyda joylashgan maishiy xizmat ko'rsatish binosi sotiladi.

Sotish sharti va narxi bilan "www.e-rieltor.uz" sayti orqali tanishish mumkin.

Savdoga qo'yilgan mulklarni bevosita joyiga chiqib ko'rish imkoniyati bor.

Savdoda ishtirok etish uchun talabgorlar **"e-rieltor.uz"** platformasi orqali ariza berishadi.

Call-markaz: +99855-517-22-20.
Rasmiy saytimiz: www.e-rieltor.uz

2026/2027 o'quv yilidan Inklyuziv markaz tarkibida tajriba-sinov tariqasida inklyuziv-korreksion maktab faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1242.10 379 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. O'fset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va ummalfiga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ommaviy rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir H. Qarshiyev.
Musahhib Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 00.00 Topshirildi — 00.20

1 2 3 4 5 6